

Globalashuv Sharoitida Musiqa Xalq Diplomatiyasining Etakchi Vositasi

Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Farg‘ona davlat universiteti , Vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrasи o‘qituvchisi

Mail: nigoramansurova19@gmail.com

nigora.mansurova@internet.ru

Annotatsiya:

Ushbu maqola- xalqlar bilan o’zaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va turli yo’nalishlarda diplomatik aloqalarni o’rnatishda musiqa va unung ahamiyati hususida bo’lib, O’zbekistonda xalq diplomatiyasining musiqa san’ati orqali amalga oshirilayotlar yangi islohotlari haqida so’z boradi.

Tayanch so‘z va iboralar: Musiqa san’ati, milliy musiqa, musiqiy meros, musiqa diplomatsiyasi, xalq diplomatsiyasi, madaniy aloqalar.

Аннотация:

В этой статье речь пойдет о музыке и ее значении в установлении дипломатических отношений с народами в общественно-политической, экономической, культурной и различных направлениях, а также о новых реформах народной дипломатии, осуществляемых в Узбекистане посредством музыкального искусства.

Ключевые слова и выражения: Музыкальное искусство, национальная музыка, музыкальное наследие, музыкальная дипломатия, народная дипломатия, культурные связи.

Annotation:

This article is about music and its importance in establishing diplomatic relations with nations in sociopolitical, economic, cultural and different directions, and about the new reforms of public diplomacy implemented in Uzbekistan through the art of music will go.

Keywords and phrases: Music art, national music, musical heritage, music diplomacy, public diplomacy, cultural relations.

Uzoq tarixiy jarayonlarda shakllangan xalq diplomatiyasи o’zbek xalqi madaniyatining tarkibiy qismiga aylanib, o’ziga xos madaniyat ko‘rinishini olgan. Darhaqiqat, xalq diplomatiyasи qadimdan o‘z oldiga olijanob maqsadlar va insonparvarlik g‘oyalarini, madaniy

hamkorlikning o‘zaro foydali prinsiplarini qo‘yib kelgan. Xalq diplomatiyasi — umumiylit va xususiylikning qonuniy zarurati bo‘lib, o‘zida munosabatlarning barcha shakllarini, ya’ni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy muloqotlarni hamda aholining barcha qatlamlarini: dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar, dindorlar, ziyyolilar, ishchilar, talabalar, o‘quvchilarni ham jamlay oladigan xalqaro munosabatlar shaklidir. Bu qadimiy, samimiy va har xil mafkuraviy, siyosiy, diniy qarashlar, manfaatlardan holi eng beg‘ubor, eng ta’sirchan va eng samarali diplomatiyadir. Xalq diplomatiyasi xalq va hukumat manfaatlarning ifodasidir. U xalq va hukumatning mushtarak ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini ro‘yobga chiqaradi. Xalq diplomatiyasi hukumat tarkibiga kirmaydigan jamoat birlashmalarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy munosabatlari shaklidir. Har qanday demokratik davlat, eng avvalo, o‘z xalqining manfaatlarini ifoda etadi. Demak, bugungi xalq diplomatiyasi alohida mavjud bo‘lmay, hukumat tasarrufidagi diplomatiyaning tarkibiy qismidir[3, 26].

Vatanimiz hududida tarixan jiddiy milliy nizolar hech qachon ko‘zga tashlanmaydi. Holbuki, mintaqada nafaqat turli millatlar, elatlar, balki bir paytda bir qancha dinlarning ham mavjud bo‘lganligiga guvoh bo‘lamiz. Nazarimizda, donishmand ajdodlarimiz muammoning echimini aynan musiqadan topganlar. Ya’ni tarbiyaning asosi milliy musiqa hisoblangan va shu yo‘l bilan yosh avlodda inson uchun zarur bo‘lgan barcha ezgu xislatlarni kamol toptirganlar. Bunda ona allasi bilan inson qalbiga singdirilgan eng ezgu qadriyatlar turli marosim qo‘schiqlari, folklor, yor-yoru yallalarda rivojlantirib borilgan. O‘zbek milliy maqom san’ati dunyodagi barcha yuksak ma’nnaviyatli kishilarga manzur, chunki u nafaqat millatimizga xos ohanglarni, balki umuminsoniy qadriyatlarni ham o‘zida birday aks ettirgan. Jahon olimlarining fikricha, yurtimiz kordofonlarning (torli soz) vatanidir. Torli sozlar eramizning I asridan dunyo xalqlariga xalq diplomatiyasining turli yo‘llari bilan tarqala boshlagan edi. Bu soz xitoy imperatori Vu Tining turk malikasiga uylanganidan so‘ng xitoya borgan, so‘ngra Hindistonga tarqagan edi[2,4]. Aytish mumkinki, qadim zamonlardan Markaziy Osiyo insoniyatning musiqa madaniyati taraqqiy topgan mintaqalaridan hisoblanadi.

Bugungi kunda avj olayotgan xalqaro globallashuv jarayonida xalq diplomatiyasini muvaffaqiyatli rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda, istiqlol bergen imkoniyatlardan yanada unumli foydalangan holda millatimiz musiqa madaniyatini targ‘ib etish xalqimiz va mamlakatimizni jahon xalqlariga tanishtirishda o‘ta ta’sirchan vosita ekanini aytish joiz.

Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi o‘ta murakkab zamonda millati, tili va dini turlicha bo‘lgan millionlab odamlarni hech qanday tarjimonsiz do‘st qiladigan, ular o‘rtasida hamkorlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydigan musiqa san’atining o‘rni va ta’siri tobora ortib bormoqda.

Umuman, mamlakatimizning dunyoga tanilishida, xalqimizning jahon xalqlari bilan yanada kengroq aloqa bog‘lashida xalq diplomatiyasining etakchi vositalaridan biri sifatida musiqiy merosimiz targ‘iboti juda muhim o‘rin egallaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev Registon

maydonida ijro etilayotgan har bir musiqa insoniylik qadriyatlarini yuksaklarga ko‘tarayotganini, til, millat va dinidan qat’iy nazar odamlarni birlashtirayotganini alohida ta’kidlagan edilar[5].

Dunyoning turli qit’va mintaqalaridagi 60 ga yaqin mamlakatdan kelib, “Sharq taronalari” anjumanida ishtirok etgan atoqli siyosat va madaniyat arboblari, mashhur san’at namoyandalari bundan yigirma yil oldin bu festivalga asos solgan Birinchi Prezidentimiz xotirasiga chuqr xurmat bildirib, u kishining xizmatlarini minnatdorlik bilan ta’kidlaganlari, hech shubxasiz, barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi[1, 242].

Bugungi globallashuv sharoitida bu boradagi ishlarni yanada avj oldirish, xalqimizning qadim madaniyati ildizlarini chuqr o‘rganish, shu orqali davlatimizning siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi tashqi siyosatini ishlab chiqishda xalq diplomatiyasi imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Musiqa madaniyati tom ma’noda xalqimizning jahon xalqlari bilan do’stlik va hamkorlik munosabatlarining qaror topishida muhim bo‘g‘in sifatida xizmat qiladi. Umuman, milliy musiqiy merosni targ‘ib etish, bu o‘zlikni, millatni, uning madaniyati va borlig‘ini jahonga tanitish demakdir. Millatning qadr-qimmati, uning salohiyati va jahon ma’naviy taraqqiyotiga qo‘sghan hissasi bilan belgilanadi.

Istiqlolning dastlabki yillaridan mamlakatimizdagи taniqli ijodiy ziyorilar zo‘r g‘ayrat bilan milliy musiqiy merosimiz durdonalarini yanada kengroq ko‘lamda jahon sahnalariga olib chiqa boshladilar. Jumladan, ilk bor O‘zbekiston vakillari sifatida 1991 yil 1-11 avgust kunlari folklor san’ati bo‘yicha Fransiyaning Djon shahrida o‘tkazilgan jahon festivalida Andijonning «Sumalak» jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etgan edi[4, 26].

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati tomonidan tanilishida musiqa madaniyati xalq diplomatiyasi vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yuqorida tadbirlardan tashqari ikkinchi yo‘nalish ham mavjud bo‘lib, bu biror bir davlatda «O‘zbekiston madaniyati kunlari»ni tashkil etishdir. Jahonning ko‘plab mamlakatlarida o‘tkazilgan «O‘zbekiston madaniyati kunlari», dekalarda o‘zbek milliy musiqasi va raqs san’ati, milliy musiqiy merosimizning eng yaxshi namunalari dunyoning barcha xalqlari tomonidan qizg‘in olqishlar bilan qarshi olingan edi. Bu tadbirlar nafaqat milliy musiqiy merosni targ‘ib etish, balki yurtimizning madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotini ko‘rsatib berish orqali mamlakatimizning xalqaro maydonidagi nufuzini yanada yuqori ko‘tarish imkoniyatini beradi. MDH mamlakatlari doirasida keng ko‘lamli aloqalarni yo‘lga qo‘yishda ham musiqa madaniyatining o‘rni beqiyosdir. Jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning o‘zagi o‘zbek madaniyati va san’atini targ‘ib etish va tanishtirish hisoblanadi. Mamlakatimizda turizm sohasining rivojida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin bo‘lgan muslimon sharqi davlatlari bilan ham madaniy aloqalarning o‘sib borishi yaqin kelajakda o‘zining ijobiy samarasini berishi muqarrar. Albatta, musiqa millatlar o‘rtasidagi universal til hisoblanadi va o‘zaro do’stlik, birodarlikning

qaror topishida mustahkam ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Istiqlol yillarida amalga oshirilgan bu tadbirdan asosiy maqsad mamlakatimizni jahon xalqlariga tanishtirishga qaratildi. Bunda xalqimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan ulkan ma’naviy qadriyat bo‘lgan musiqiy merosimizning o‘rni juda katta bo‘ldi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda musiqa madaniyatini rivojlantirish borasida keng ko‘lamlı islohotlar amalga oshirildi. Istiqlolning dastlabki kunlaridan ijodiy ziyolilarni ijtimoiy himoya qilish, ularning mehnatini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Ayniqsa, xalqning ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutuvchi barcha sohalar qatori musiqa madaniyatini rivojlantirish ham davlat himoyasiga olindi.

Musiqa san’ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga etkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San’at bilan oshno bo‘lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga xurmati baland bo‘ladi.

Haqiqiy san’atni, sof va boqiy musiqani faqat Parvardigori olamning marhamati bilan xazrati Inson yaratadi. Shu ma’noda, musiqa – hech narsa bilan o‘lchab, solishtirib bo‘lmaydigan beqiyos ilohiy ta’sir kuchiga ega. Sayyoramizda turli kelishmovchilik va qarama-qarshiliklar, urush va nizolar avj olgan tahlikali zamonda, odamzot tobora o‘z dunyosiga o‘ralib borayotgan bir sharoitda musiqa insonga insonligini eslatib, uning qalbida kelajakka umid va ishonch uyg‘otadi.

Foydalanimizning adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxtdir. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2018.
2. Nazarov A. Antik davr musiqa madaniyati. – Toshkent, 2003.
3. Rahimbaeva D.V. O‘zbekistonda diplomatiya xizmatining shakllanishi va rivojlanishi tarixi (1944-2001 yy. Tashqi ishlar vazirligi misolida). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. – Toshkent, 2007.
4. O‘zR MDA., Fond 2487. Opis 3. Yig‘. jild. 6997(v).
5. <https://sputniknews-uz.com/20190826.html> Shavkat Mirziyoev: “Sharq taronalari” dinlar va millatlarni birlashtirmoqda.